

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**NARMURATOV ZAYNIDDIN RADJABOVICH**

**“TA’LIM” VA “ILM” MAZMUNLI FRAZEMALARNING SEMANTIK-  
STRUKTUR, LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA  
O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**  
**Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)**

**Narmuratov Zayniddin Radjabovich**

“Ta’lim” va “ilm” mazmunli frazemalarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida) .....3

**Narmuratov Zayniddin Radjabovich**

Semantic-structural, Linguocultural Features of Phrases with the Meaning “Education” and “Science” (in the example English and Uzbek Languages).....33

**Нармуратов Зайниддин Раджабович**

Семантико-структурные и лингвокультурологические особенности словосочетаний со значением «образование» и «наука» (на примере английского и узбекского языков) .....63

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of publications.....68

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**NARMURATOV ZAYNIDDIN RADJABOVICH**

**“TA’LIM” VA “ILM” MAZMUNLI FRAZEMALARNING SEMANTIK-  
STRUKTUR, LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA  
O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.DSc/Fil433 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.


Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Bakirov Poyan Uralovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Axmedov Oybek Saporbayevich</b> filologiya fanlari doktori, professor <b>Xajiyeva Feruza Melsovna</b> filologiya fanlari doktori, dotsent <b>Mamatov Abdi Eshonqulovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Qarshi davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « 28 » *sentabr* soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*481* raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 06 » *sentabr* kuni tarqatildi.  
(2024-yil « 06 » *sentabr* dagi 24-28- raqamli reyestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,  
professor

**F.M.Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari  
doktori, dotsent

## KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida til tizimining turli sathlariga tegishli leksik birliklarning shakllanishi va semantik ifodasi tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Mazkur jarayonda frazeologik birliklar alohida semantik guruh sifatida ifodalanishi, ularning kommunikativ-pragmatik jihatdan nutqda voqelanishiga xos xususiyatlarni, frazemalarni ifodalovchi leksik birliklarning kelib chiqishi, semantik, struktur, pragmatik, lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash hamisha ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Xususan bunday leksik birliklarning, ya'ni frazemalarni ijtimoiy hayotga, xususan bugungi zamonaviy ta'limga bog'lab o'rganish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularning shakllanish omillari, tarkibiy-mazmuniy shartlanishi, qo'llanish ko'lamini boshqa tillar bilan qiyosiy hamda lingvomadaniy aspektida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i tobora ortib bormoqda. Buning mantiqiy natijasi sifatida ingliz va o'zbek tillarida xalq dunyoqarashi, urf-odat va an'alarini o'zida aks ettiruvchi *ta'lim* va *ilm* mazmunli frazeologik birliklarni ilmiy-nazariy asoslash, ularni semantik-struktur va lingvomadaniy jihatdan yoritish, qardosh bo'lmagan tillar doirasida nomlanishidagi umumiy va differentsial motivatsion jihatlarini izohlash assotsiativ lug'atlarda keltirilgan tizimini mukammallashtirishga, tarjima jarayonida adekvatlikka erishish qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o'zbek tilini rivojlantirishga, jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik muammolari tadqiqiga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, "fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish"ga alohida e'tibor qaratilmoqda<sup>1</sup>. Bu esa, o'z navbatida, tilning ichki imkoniyatlarini tadqiq qilish milliy ma'naviyatni takomillashtirish va uni yoshlar ongiga singdirishda alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bu borada turli tillar tizimida *ta'lim* va *ilm* komponentli frazeologik birliklarning semantik tarkibi, struktur va lingvomadaniy xususiyatlarini tekshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 - oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni. [https://nrm.uz/contentf?doc=602358\\_&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=602358_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarni o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi markazlari va Oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Cambridge university, Oxford university (Buyuk Britaniya), New York University, Indiana University (Birlashgan Qo'shma Shtatlar), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Mannheim University, Greifswald University, Trier University, (Germaniya), Verona University (Italiya), Czech Academy of Sciences (Chexiya), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Buxoro davlat universiteti va Termiz davlat universitetlari (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Frazeologiya sohasiga oid dunyoda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, ilmiy natijalar olingan: frazeologik birliklarning mohiyati shaklan turg'unlikda ekanligi isbotlangan (Moskva davlat universiteti, Rossiya); frazeologik birliklar funksional va struktural jihatdan tasniflangan (Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya); o'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi ularning pragmatik xususiyatlari, o'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi tamoyillari ilmiy asoslangan (Samarqand davlat universiteti, Andijon davlat universiteti); frazeologik birliklarda antroposentrik yondashuv ilmiy jihatdan asoslangan (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti); Maqollarning paremiologik birlik sifatidagi maqomi belgilangan (Termiz davlat universiteti) O'zbekiston).

Bugungi kunda jahon tilshunosligida frazeologizmlar bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda: frazeologik birliklarning lingvokulturologik aspektlari; frazeologik lug'atlarni elektron shakllarini yaratish; frazeologik birliklarning semantik-struktur xususiyatlari; o'zbek tilining frazeologik tizimini boshqa qardosh

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.dissercat.com/>, <https://www.twirpx.com/files/science>, [www.amazon.com](http://www.amazon.com), [www.britanica.com](http://www.britanica.com), [www.cambridge.org](http://www.cambridge.org), <https://diss.natlib.uz>, <https://ziyonet.uz/search> kabi manbalar asosida amalga oshirildi.

va qardosh bo‘lmagan tillar frazeologiyasi bilan chog‘ishtirib o‘rganish va hokazo.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek frazeologik birliklariga doir dastlabki ilmiy izlanishlar M.Xusainov, Sh.Rahmatullayev, M.Ruzikulova, Y.D.Pinxasov, M.I.Umarxodjayev, A.Isayev, H.Berdiyorov, H.Yo‘ldoshev, A.M.Bushuy, X.Kaxxorova, A.Shomaqsudov<sup>3</sup>larning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik qo‘lga kiritilgach, ma’naviy hayotimizda ham tub burilish davri boshlandi. Bu davrga kelib, ongimizda asrlar davomida singib qolgan mutelik psixologiyasi o‘rniga erkinlik, ijodkorlik, fidokorlik psixologiyasi paydo bo‘ldi. Ana shunday sharoitda o‘zbek tilini, uning bebaho boyligi bo‘lgan frazeologizmlarning shakllanish jarayonini tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. Bu davr frazeologik birliklarni turli qirralariga bag‘ishlangan ishlar bajarilganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, A.E.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, M.Sodiqova, Q.Hakimov, Sh.R.Usmonova, M.K.Xalikova, Abdug‘afur Mamatov, K.Bozorboyev, B.M.Jo‘rayeva, P.U.Bakirov, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova, M.Vafoyeva, U.M.Rashidova, B.N.Sulaymonov, G.X.Begmatova<sup>4</sup>.

Ingliz tilshunosligida N.R.Norrik, B.Altenberg, A.R.Kovi, R.Glezer, G.Knappe, E.Fraser, J.Gibbons, A.De La Granja, Y.Kamakura, M.L.Beshaj,

<sup>3</sup> Хусаинов М. Фраzeология прозы писательницы Айдын. АКД. – СамГУ, 1959. – 18 с.; Рахматуллаев Ш. Ўзбек frazeологиясининг баъзи масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1966. – 262 б.; Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – 22 с.; Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лесикология ва frazeология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 247 б.; Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного frazeологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва., 1972. – 27 с.; Исаев А. Соматические frazeологизмы узбекского языка: дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 196 с.; Бердиёров Ҳ., Йўлдошев Б. Ўзбек frazeологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарканд, 1977. – 38 б.; Бушуй А.М. Лексикографические описание frazeологии.– Самарканд. – 1982. – 114 с.; Умарходжаев М.И. Основы frazeографии. – Ташкент: Фан, 1983. – 136 с.; Каххарова Х. Фраzeология Абдуллы Кадыри: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 24 с.; Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 528 б.

<sup>4</sup>Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида лексик ва frazeологик норма муаммолари. – Тошкент.: Фан, 1991. – 276 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида frazeологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1993. – 297 с.; Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар лугати. – Тошкент, 1993. – 259 б.; Ҳакимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қилипти frazeологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 24 б.; Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик frazeологизмлар: Филол. фан. номз. дисс. – Самарканд, 1998. – 160 б.; Халикова М.К. Фраzeология как форма отражения национального менталитета в языковой картины мира (на материале русского и узбекского языков): Дисс. канд. филол. наук.– Ташкент, 1999. – 142 с.; Маматов А. Ўзбек тили frazeологизмларнинг шаклланиши масалалари: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1999. – 312 б.; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутки frazeологизмлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарканд, 2001. – 22 б.; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фан номз. дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Доктор филологических наук дисс. – Ташкент, 2007. – 334 с.; Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларида frazeологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент: ЎзРФА А. Навоий номидаги Тил ва адабиёт ин-ти, 2007. – 157 б.; Алматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б.; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида frazeологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.; Рашидова У. М. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида). Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертацияси. Самарканд, 2018. – 138 б.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фанлари докт. (DSc) диссертацияси. Самарканд, 2019. – 230 б.; Сулаймонов Б.Н. Темирбек тўрабоевнинг «Теорема» романида «т» товуши билан бошланувчи сўзларнинг метафоралашуви ва фраземалашуви. Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертацияси. Самарканд, 2020. – 160 б.; Бегматова Г.Х. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертацияси. Термиз, 2021. – 130 б.

A.Vrbins, M.Vrbins, A.A. Dabrovska<sup>5</sup> kabi g‘arb olimlarining ilmiy tadqiqotlari frazeologik birliklarni tadqiqiga bag‘ishlangan.

Frazeologik birliklarni tarjimasiga oid masalalar G‘.Salomov, Q.Musayev, Y.Po‘latov, S.Abidxodjayeva, G.K.Odilova, I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.M.Qambarov, A.R.Kovi, Z.Q.Teshaboyeva<sup>6</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

Frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlari A.A.Salax, G.E.Xakimova, M.M.Ferzilayeva, B.Boltayeva, E.Milburn va T.Varren, Sh.Q.Jumaqulova<sup>7</sup> kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Frazeologik birliklar lingvomadaniy birlik sifatida V.V.Maslova, A.F.Vejbitskaya, V.N.Teliya, B.Mihayl, G.Bella, S.Hag, W.Mayder, A.V.Grigorev, N.F.Alefirenko, O.Bicher, N.Z.Nasrullayeva, G.E.Xakimova, M.A.Radjabova, O‘.G‘.Xudaynazarov, Sh.A.Sheraliyev<sup>8</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

---

<sup>5</sup>Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs New York: Mouton, 1985. – 213 p.; Bengt Altenberg, A.R. Cowie. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word-combinations // *Phrasology*. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 238 p.; Gläser, Rosemarie. The Stylistic potential of phraselological units in the light of genre analysis // *Phrasology*. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 245 p.; Knappe Gabriele. Idioms and Fixed Expressions in English Language Study before 1800. – Peter Lang, 2004. – 664 p.; Fraser Edward, Gibbons John. Soldier and Sailor Words and Phrases. – New York: E.P. Dutton and Company, 2004. – 372 p.; Álvarez de la Granja, María (ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // a multilingual and multidisciplinary approach. – Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008. – 382 p.; Kamakura Y. Collocation and preposition sense: a phraseological approach to the cognition of polysemy. A thesis submitted to the University of Birmigham for the degree of doctor of philosophy (PhD). The university of Birmigham. – 2011. – 337 p.; Beshaj Ma. Lediana. Phraseological Units Used in the Functional Styles in English and Albanian Language // *Mediterranean Journal of Social Sciences*// pub.by MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome: Vol – 4 № 2; May, 2013. – P. 453-456.; Vrbinc Alenka, Vrbinc Marjeta. Phraseological units with onomastic components: The case of English and Slovene // *Revista de Lingüística Teórica y Aplicada*. Concepción (Chile), 52 (1), I Sem. 2014. – P. 133-153.; Dabrovska A.A. *Syntactic Study of Idioms*. Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 372 p.

<sup>6</sup>Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент: /Фанлар академияси/ 1961. – 159 б.; Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 145 б.; Мусаев Қ. Инглиз тилидан ўзбек тилига бадий таржиманинг стилистик масалалари: Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 1967. – 140 б.; Пўлатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 68 б.; Абидходжаева У.С. Национально-прагматический аспект при переводе фразеологических единиц: Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: 2002. – 128 с.; Одилова Г.К. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърини таржималарида адекватлик муаммолари: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент: 2011. – 153 б.; Гафуров. И., Мўминов О., Қамбаров Н.М. Таржима назарияси // Олий ўқув юртлар учун ўқув кўлланма. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012. – 280 б.; Cowie A.R. *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. USA, Oxford University Press, 2012. – 272 p.; Тешабоева З. Қ. «Бобурнома» нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертацияси. Тошкент – 2017. – 157 б.; Тешабоева З. Қ. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. фанлари доктори... дисс. Тошкент – 2021. – 259 б.

<sup>7</sup>Алдиабани Ареф Али Салах. Фразеологические единицы, выражающие интеллектуальные способности человека в английском и русском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2003. – 199 с.; Хакимова Г.Э. Зооним компонентли фразеологик бирликларнинг структуравий ва семантик хусусиятлари (инглиз тили материаллари асосида): Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2008. – 145 б.; Ферзилаева М.М. Фразеологические единицы качественной характеристики человека в лезгинском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2010. – 173 с.; Болтаева Б. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил): Филол. фан. фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 49 б.; Milburn Evelyn, Warren Tessa. Idioms shows effects of meaning relatedness and dominance similar to those seen for ambiguous words//*Psychonomic bulletin and review*. – Springer, 2019. – P.591-598.; Jumaqulova Sh.Q. Фразео-семантик maydonda “Хурсандчилик” etimonlarining pragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida). *Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*. Termiz, 2023. – 130 b.

<sup>8</sup>Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – Москва: Академия, 1987. – 284 с.; Вежбицкая А.Ф. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В. Падучевой. – Москва: Русские словари, 1996. – 416 с.; Телия В.Н. Русская фразеология.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni boshqa tillar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda o‘rganib, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilish keng tus oldi. Bu jihatdan Y.Arsenteva, I.Stepanova, L.Kuliyeva, I.N.Isabekov, G.I.Ergasheva, N.Z.Nasrullayeva, Sh.P.Raximova, S.Abdullayeva, R.Sapayeva, D.I.Xakimova<sup>9</sup> singari tilshunos olimlarning ishlari bir-biriga qardosh va qardosh bo‘lmagan ikki til doirasida olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan ahamiyatlidir.

Ammo shuni qayd etish lozimki, tilshunoslikda proverbial frazeologizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli. Sohaga oid tadqiqotlarga nazar tashlaganda A.Nasirovning tadqiqot ishi diqqat-e’tiborimizni tortadi, unda frazeologizmlar va proverbial frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilib, ko‘chma ma’nodagi maqollar proverbial frazeologizmlar tarkibiga kiritilgan. To‘plangan misollar frazeo-semantik maydonlarga bo‘linib, ularning ma’no va shakli, milliy-madaniy xususiyatlari tahlilga tortilgan<sup>10</sup>.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan va boshqa bir qator o‘zbek, ingliz hamda jahon tilshunoslarining ilmiy izlanishlari e’tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, ingliz, o‘zbek tillaridagi *ta’lim* va *ilm* mazmunli frazeologik birliklarni semantik, struktur

---

Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.; Michael B., Bella G., Hugh S. Developing the intercultural dimension in language teaching. A practical introduction for teachers. Council of Europe, Strasbourg, 2002. – 142 p.; Meider W. Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 2004. – 321 p.; Григорьев А.В. Русская библейская фразеология в контексте культуры. – Москва: Индрик, 2006. – 360 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: «учебное пособие» Москва: Флинта, Наука; 2010 – 240 б.; Бичер О. Русские пословицы и поговорки с компонентом-зоонимом (на фоне турецкого языка): Дисс. канд. филол. наук. – Смоленск, 2015. – 145 с.; Насруллаева Н.З. Инглиз тили фразеологик бирликлар семантикасидаги гендер концепцияси. Филол. фанлари доктори... дисс. Тошкент – 2016. – 259 б.; Хакимова Г.Э. Фразеологик бирликларнинг лингвокультурологик аспекти. Монография. Тошкент – 2018. – 126 б.; Раджабова. М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари. (Инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида). Филол. фан бўйича фалсафа докт. (PhD) диссертацияси. Бухоро, 2020. – 160 б.; Худойназарова Ў.А. Инглиз ва ўзбек тилларида мифоним компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – 147 б.; Sheraliyeva Sh.A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi diniy frazeologik birliklarning lingvomadaniy aspekti. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2023. – 132 b.

<sup>9</sup>Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц выражающих характер человека в английском и русском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 16 с.; Степанова И. Английские фразеологические единицы с флористическим компонентом (в сопоставление русском языком): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Киев, 1987. – 24 с.; Кулиева Л. Принципы фразеологизации в русском и английском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Баку, 2004. – 26 с.; Исабеков И.Н. Фразеологизмы и проблемы их перевода (на материале кыргызского и русского языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Бишкек, 2004. – 24 с.; Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи. Филология фанлари номзоди дисс. Тошкент, 2011. – 164 б.; Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши. Филол. фанлари доктори (DSc) диссертацияси. Тошкент – 2018. – 230 б.; Рахимова Ш.П. Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўгиришнинг лисоний хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент, 2019. – 145 б.; Абдуллаева С.Б. Инсонни характерлашда зооним компонентли фразеологик бирликлардаги лингвопрагматик хусусиятлар (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2022. – 148 б.; Сапаева Р.Б. Қариндош бўлмаган тиллар фраземаларининг антропоцентриқ киёси (ўзбек ва немис тиллари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Урганч, 2023. – 136 б.; Хакимова Д.И. Фразеологик birliklarning harbiy diskursda faollashuvining pragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand, 2023. – 138 b.

<sup>10</sup>Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларида провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий - маданий хусусиятлари. Тошкент, 2016. – 248 б.

jihatlarga e'tibor qaratilgan hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlari chog'ishtirma planda o'rganilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universitetining Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida "Tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" mavzusida ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillaridagi "ta'lim" va "ilm" mazmunli frazeologik birliklarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

frazeologik birliklarga oid ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish va ingliz, o'zbek tili materiallari asosida mazkur til birliklari yuzasidan konseptual xulosaga kelish;

ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini ochib berish;

chog'ishtirilayotgan tillardagi ta'lim va ilm mazmunli frazeologik birliklarning tahlili orqali ularning struktur jihatdan farqli va o'xshash tomonlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida ta'lim va ilm mazmunli frazeologik birliklarni chog'ishtirish orqali ularning lingvomadaniy jihatdan farqli va o'xshash tomonlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi *ta'lim, ilm* mazmunli frazeologik birliklar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Chog'ishtirilayotgan tillarda *ta'lim, ilm* mazmunli frazeologik birliklarning semantik-struktur, lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda leksik-semantik, chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash lingvomadaniy tahlillar (madaniyatlararo), shuningdek statistik, komponent tahlil metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari ularning insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligi va semantik-struktur mohiyati har ikkala xalq tarixi, milliy mentaliteti, moddiy hamda ma'naviy madaniyati, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy kundalik turmush tarzi, qadriyati hamda diniy e'tiqodi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg'ulari, urf-odatlarini, mamlakatlarning geografik joylashuvi kabi omillar ta'sirida shakllanganligi dalillangan;

qiyoslanayotgan tillardagi proverbial frazeologizmlarning muqobillari hisoblangan monoekvivalentlik, poliekvivalentlik, ma'naviy ekvivalentlik, ekvivalentsiz frazeologik birliklar kabi turlari gap yoki fikr tema va remasini belgilashda (ingliz tilidagi *to know the way the wind blows* (shamol qaysi yo'ldan esishini bilmoq), o'zbek tilidagi *yulduzni benarvon uradigan* kabi frazeologik birliklarning farqli jihatlari aniqlangan bo'lsa, ingliz tilidagi *to have smth at one's finger ends* (biror narsani barmog'ining oxirida deb bilmoq), o'zbek tilidagi *besh*

*qo'lday bilmoq* kabi o'xshash tomonlari namoyon bo'lishi aniqlangan;

har ikkala tilda frazeologik birliklarning kompleks tasnifi asosida ularning yuqori funksional potentsialga va o'zining pragmatik tabiatiga egaligi, kontekstual va kommunikativ shartlanganligi, paradigmatic hamda sintagmatik aktuallashuvi semantika-funksiya-pragmatika uchligida namoyon bo'lishi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi ta'lim va ilm komponentli frazeologik birliklar semantik valentligiga qarab aniqlovchi tanlashda ularning konnotativ va denotativ ma'nolari birlamchi, ma'nodagi kuchlilik-kuchsizlik, ijobiylik-salbiylik, uslubiy xoslanganlik, darajalanish, shakl va ma'no munosabati, tarixiylik omillarining ikkilamchi ahamiyati asoslangan;

ingliz tilida ta'lim va ilm komponentli frazeologik birliklar tilning grammatik-funksional tizimi me'yoriga ko'ra morfologik vositalar (affikslar, qo'shimchalar)siz hosil bo'lsa, o'zbek tilida esa turli morfologik vositalarni, ya'ni affiks va qo'shimchalarni qo'shish orqali so'zlarni sintaktik bog'lanishi isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ingliz va o'zbek tillarida *ta'lim, ilm* mazmunli frazeologik birliklarni semantikasi, lingvomadaniyat bilan bog'liq jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining qiyosiy tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi, "Tilshunoslik", "Leksikologiya", "Uslubiyat", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Qiyosiy tipologiya", "Lingvomadaniyatshunoslik" kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga yordam berishi asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida *ta'lim, ilm* mazmunli frazeologik birliklarni semantikasi va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodikaning qardosh va noqardosh tillarga xos boshqa tipdagi paremiyalarini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

*ta'lim, ilm* konseptli frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillaridagi chog'ishtirma tahlili amalga oshirilgan;

frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanilishi va o'rganilishida ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar leksik-semantik, chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy, statistik, komponent tahlil metodlari bilan asoslanganligi, shuningdek, xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, xususan, lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini o'rganishda, milliy matnlarga xos xususiyatlarni tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritishda, lingvomadaniy tadqiqot usullaridan foydalanishda, tadqiq manbalarini aniqlashda, *ta'lim, ilm* konseptli paremalarning lingvokulturologik qiymatini belgilashda ko'rinadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar *ta'lim, ilm* konseptli ingliz, o'zbek frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** shu bilan aniqlanadiki, Oliy ta'lim tizimida "Lingvokulturologiya", "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borishda, magistratura bosqichida "Lingvistik tadqiqot metodlari", "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari" kabi yo'nalishlarda maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tillarida *ta'lim* va *ilm* mazmunli frazemalarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillaridagi frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari va semantik-struktur mohiyati har ikkala xalq tarixi va milliy mentaliteti, moddiy va ma'naviy madaniyati, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy va kundalik turmush tarzi, qadriyati va diniy e'tiqodi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg'ulari, urf-odatlari, mamlakatlarning geografik joylashuvi kabi omillar ta'sirida shakllanganligi va ular insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan PZ – 2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 18-mart № 04/01-662-son ma'lumotnomasi). Natijada to'plangan frazeologik birliklar ingliz va o'zbek xalqlarining til boyligini, urf-odatini, mentalitetini, dunyo qarashlarini va tarixini o'rganishda, hamda til o'rganuvchilarda kerakli kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillardagi proverbial frazeologizmlarni muqobillari *monoekvivalentlik*, *poliekvivalentlik*, *ma'noviy ekvivalentlik*, *ekvivalentsiz frazeologik birliklar* kabi turlari aniqlanib, ular gap yoki fikr tema va remasini belgilashda namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023 yillarda bajarilgan AM-Φ3-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish mavzusi" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-mart № 04/01-679-son ma'lumotnomasi). Natijada frazeologiyada sinonimiya, antonimiya, omonimiya hamda ko'p ma'nolilik hodisalarining farqli xususiyatlarini batafsil yoritib berishga xizmat qilgan;

har ikkala tilda frazeologik birliklarning kompleks tasnifi asosida ularning yuqori funksional potensialga va o'zining pragmatik tabiatiga egaligi, kontekstual va kommunikativ shartlanganligi, paradigmatic va sintagmatic aktuallashuvi semantika-funksiya-pragmatika uchligida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan F3 – 201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 16-oktabr № 01/10-2132-son ma'lumotnomasi). Natijada til va adabiyotga oid materiallar mazmunan boyitildi hamda ilmiylik darajasi oshirilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi *ta'lim* va *ilm* komponentli frazeologik birliklar semantik valentligiga qarab aniqlovchi tanlashda ularning konnotativ va denotativ ma'nolari, ma'nosidagi kuchlilik-kuchsizlik, ijobiylik-salbiylik, uslubiy

xoslanganlik, darajalanish, shakl va ma'no munosabati, tarixiylik omillarining birlamchi ekanligiga oid xulosalardan Termiz davlat universitetida 2021-2024 yillarda amalga oshirilgan 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate's employability in Central Asia – TRIGGER" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 11-iyuldagi 06/07-313-son ma'lumotnomasi). Natijada *ta'lim* va *ilm* konseptli frazeologizmlar transformatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar nafaqat oliy ta'lim muassasalarida o'tiladigan fanlar o'qitilishida, balki keng omma uchun mo'ljallangan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar yaratishda ham muhim manba bo'lib xizmat qilishi ko'rsatilgan;

ingliz tilida *ta'lim* va *ilm* komponentli frazeologik birliklar morfologik vositalar (affikslar, qo'shimchalar)siz hosil bo'lsa, o'zbek tilida esa turli morfologik vositalarni, ya'ni affiks va qo'shimchalarni qo'shish orqali so'zlarni sintaktik bog'lanishi orqali hosil bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali"ning "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar uchun", "O'zbekiston yoshlari" eshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston Teleradiokanali"ning 2023-yil 7-noyabr 04-36-1660-son ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy izlanuvchilarga, talabalarga o'zbek va ingliz xalqlarining an'analari, urf-odatlarini, turmush tarzini qiyoslash imkoni paydo bo'lgan, ma'naviy qadriyatlar tizimida alohida o'rin egallagan marosimlar, xalq og'zaki ijodi haqidagi matnlar bo'yicha lingvokulturologiya, etnolingvistika kabi yo'nalishlar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hajmi ko'paygani haqida xorijiy til professor-o'qituvchilari va talabalarga ma'lumot berilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola jumladan, 10 ta respublika miqyosidagi va 3 ta xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 246 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning "**Frazeologik birliklarni o'rganishning nazariy asos va**

**muammolari**” deb nomlangan birinchi bobida jahon, ingliz va o‘zbek tilshunoslarining frazeologik birliklar ustida olib borgan ilmiy izlanishlari, xususan, ularning tarixi, frazeologik birliklarning yondosh hodisalarga munosabati, proverbial frazeologizmlarni ifodalanishiga nisbatan bildirgan munosabatlari o‘rganilgan hamda ular yangi nazariy fikrlar bilan boyitilgan.

Har bir til sohibi o‘z madaniyati, urf-odati, qadriyati va mentalitetini namoyon qiluvchi til birliklariga ega bo‘lib, lingvistlar tomonidan milliy xoslangan til birliklarining muammosi o‘tgan asrning boshlaridan chuqur tadqiq etila boshlandi. Til ilmida mazkur birliklar *frazeologizm, frazema, ibora, idioma, parema* [parema atamasi ilk bor frazema ma’nosida muallif tomonidan qo‘llanildi] kabi terminlar ostida o‘rganilib kelinadi.

Ilmiy manbalarda ingliz filolog olimi Neandr tomonidan 1558-yilda *frazeologiya*<sup>11</sup> termini birinchi marta qo‘llanganligi qayd etiladi. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu termini ishlatishga majbur bo‘lgan. Shundan so‘ng ushbu termin dunyo filologiyasida qo‘llanila boshlandi.

“Frazeologiya atamasi *fraza* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab *jumla, gap*<sup>12</sup>” ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lishiga qaramay turkiyshunoslikdagi *turg‘un birikmalarni* yig‘ish va ularni muayyan sistemalashtirish, o‘rganishga qaratilgan fan sohasi sifatida talqin qilinishi ancha oldin boshlangan.

M.Qoshg‘ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o‘zining “Devon”iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo‘llanishini arab tilida izohlagan edi. “Devonu lug‘otit turk”da xalq og‘zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she’riy parchalar, 291 ta paremalar keltiriladi<sup>13</sup>. XV va XVIII asrlarda yaratilgan eski o‘zbek lug‘atlarida ham frazeologizmlardan ayrim namunalar keltiriladi. Chunonchi, 1759-1760-yillarda yaratilgan Mirzo Mahdixonning “Sangloh” lug‘atida *so‘nggi uyqu* kabi frazeologizmlar keltiriladi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida A.Starcheskiyning “Спутник русского человека в Средней Азии” (1878), V.I.Nalivkin va M.I.Nalivkinaning “Руководство к практическому изучению сартовского языка” va boshqa lug‘atlarida *мулахиза қылмоқ, джума намаз* kabi namunalar keltiriladi<sup>14</sup>. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, bu davrlarda so‘z birikmalari, jumladan, frazeologizmlar lug‘atshunoslik ixtiyorida bo‘lgan, ular hali ilmiy tadqiq etilmagan, faqat amaliy qo‘llanilgan. Leksikografik ishlar so‘z birikmalarini va frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishda samarali turtki bo‘lgan.

O‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab Y.D.Polivanov tomonidan o‘rganilgan. U rus va ayrim sharq tillari frazeologiyasini o‘rganib, shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildiradi<sup>15</sup>”. Hozirgi kunda esa frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida shakllangan bo‘lib, tilning frazeologik qatlami lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va fanlararo kabi tadqiqotlarni o‘rganishda boy manba hisoblanadi.

<sup>11</sup> Федуленкова Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000. – 132 с.

<sup>12</sup> Казымбек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. – Казань, 1846. – С. 120.

<sup>13</sup> Абдурахмонов Ф. “Девону луғотит турк”асарининг ўрганилиш тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. 49-б.

<sup>14</sup> Navola quyidagi manbadan olindi: Mamatov A. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент.: Наврўз нашриёти, 2019. – Б. 26.

<sup>15</sup> Поливанов. Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI, – Ленинград, 1928. – 220 с.

Ingliz frazeologiyasiga munosib hissasini qo‘shgan A.V.Kunin frazeologik birliklarning barqarorligi jihatdan 5 guruhga bo‘lib, ularni “to‘liq yoki qisman ko‘chma ma’no anglatuvchi leksemalarni *barqaror birikmalar*<sup>16</sup>” deydi. Biroq, frazeologik birliklar masalasida har bir til nuqtayi nazaridan turlicha yondashuvlar mavjud. G‘arb olimlari uchun barqaror birikmalarning turli guruhlariga nisbatan *idioma*<sup>17</sup> terminini qo‘llash keng tus olgan. Bu davrda o‘zbekistonlik zabardast olimlar tomonidan ham salmoqli ishlar olib borildi (Sh. Rahmatullayev, 1952, Y.Pinxasov, 1969, G‘.Salomov, 1961<sup>18</sup> va boshqalar). Sh. Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligiga “frazеologiya” va “turg‘un birikmalar” tushunchalari, ularni tahlil qilishning asosiy qonuniyatlarini olib kirgan bo‘lsa, Y.Pinxasov frazeologiyani leksikologiyaning bir qismi sifatida frazeologik birliklarning yasalishi, ma’nosi, motivatsiyalanganlik darajalarini tadqiq qildi.

Akademik V.V.Vinogradov “frazеologik birliklarni *frazеologik chatishma, frazeologik birlik va frazeologik birikmalarga* ajratadi<sup>19</sup>. Olimning bu tasnifi ko‘pgina jahon frazeolog olimlari tomonidan tan olinadi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ular uch guruhga ajratilgan. Bu tasniflar frazeologik birlikning yaxlitligicha izohlanadigan ma’no bilan uning tarkibidagi leksikalar anglatadigan ma’nolar orasidagi munosabatlarning ifodalanish xususiyatiga asoslanadi<sup>20</sup>. Jumladan, *frazеologik qo‘shilma, frazeologik birlashma, frazeologik chatishma*.

Ingliz tilida esa tadqiqotchi F.R.Palmer idiomalarni *binomial idioms, pure idioms, partial idioms* kabi turlarga ajratadi. Unga ko‘ra, idiomalarning nutqda qo‘llanishi turli grammatik va sintaktik cheklovlar bilan bog‘liqdir<sup>21</sup>. Boshqa ilmiy manbalarda bu tasnifning boshqa turlari ham ko‘rsatilgan.

Tilshunoslikda frazeologizm tushunchasini keng va tor mazmunda tushunish tendensiyasining mavjudligi sir emas. Qator lingvistlar mazkur til birligini keng ma’noda tushunib, uning obyektini ko‘plab birliklar qamrab olishini bot-bot ta’kidlashadi. Har-bir sohada qarama-qarshiliklar bo‘lgani kabi ushbu til birliklari haqida ham olimlarning fikr-mulohazalari turlicha. Jumladan, N.N.Amosova, Y.D.Pinxasov, A.M.Babkinlar frazeologiyaning obyektini tor doirada tushunib o‘z asarlarida usbu birliklarni o‘z tabiati bilan so‘z birikmasidir degan dalilni keltiradilar va o‘z navbatida maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlardan

---

<sup>16</sup> Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва, Международные отношения, 1972. – С. 8.

<sup>17</sup> Crystal D. Linguistics. Second edition. – Penguin books, 1990. – 276 p.

<sup>18</sup> Рахматуллаев Ш. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. - Москва: Высшая школа, 1952. – 211 с., Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент, 1969. – 247 б., Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, 1961. – 162 б.

<sup>19</sup> Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. – Москва, 1977. – С. 140-161.

<sup>20</sup> Рахматуллаев Ш. Фразеологик birliklarning asosiy ma’no guruhlari. Тошкент. 1955. – Б.25., Мирзаев М., Усмонов С., Расулова И. Ўзбек тили. – Тошкент 1978. – Б. 44-45., Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент.: Наврўз нашриёти, 2019. – Б. 24.

<sup>21</sup> Palmer F.R. Semantics. – Cambridge University Press, 1981. – P.75-82.

chetda qoldiradilar<sup>22</sup>. V.V.Vinogradov, A.V.Kunin<sup>23</sup> kabi olimlar frazeologiyani keng ma'noda tushunib, maqol, matal kabi birliklarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritadilar. Akademik S.K.Kenesboyevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma'noda barcha turg'un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, so'zlarning noidiomatik, turg'un frazeologik guruhlari va juft so'zlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg'unlik va tilda tayyor holda mavjudlikdir<sup>24</sup>. G.Stefanning ta'rifiga ko'ra: "A phraseologism to be the co-occurrence of a form or a lemma of lexical item and any other kind of linguistic elements<sup>25</sup>" [har qanday birgalikda keladigan so'z birikmasi frazeologizmdir].

Shu bilan birga so'nggi yillarda tilshunoslikda frazeologik birliklar tarkibiga proverbial frazeologizmlarni kiritib o'rganish borasidagi tadqiqotlar ancha keng tus oldi. A.A.Nosirov frazeologik birliklarni keng va tor ma'noda izohlamasdan, maqol-matal kabi birliklarni ya'ni, proverbial frazeologizmlarni frazeologik birlik<sup>26</sup>lar tarkibida o'rganadi. Tadqiqotchi Adams, Owen, Arvo Krikmannlar to'liq yoki qisman ko'chma ma'no kasb etib, tilda tayyor holda uchraydigan, emotsionallik xususiyatlariga ega bo'lgan barqaror birikmalarni *proverbial frazeologizm*<sup>27</sup> tarkibiga kiritib tahlil qilgan.

Frazeologik birliklarga keltirilgan ta'riflardan ma'lumki, ularning asosiy xususiyati ko'chma ma'noliligi, inson ongida tayyor holda namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Albatta, boshqa tadqiqotlarda ham frazeologizmlarning nazariy asoslariga to'xtalgan, biz ularga berilgan ta'riflarni tahlil qilib, tadqiqotimizda yangicha yondashgan holda quyidagi ta'rifni taklif qilamiz: *ikki yoki undan ortiq til birliklaridan tarkib topgan, komponentlari yagona zanjirga tizilgan, to'liq yoki qisman ko'chma ma'noda qo'llanuvchi, gapda bir bo'lak vazifasida keluvchi so'zlar birikmasidir*. Shu bilan birga ingliz va o'zbek tillaridagi to'liq yoki qisman ko'chma ma'no kasb etib, tilda tayyor holda uchraydigan, emotsionallik xususiyatlariga ega *ta'lim* va *ilm* konseptli barqaror birikmalar aynan bizning o'rganish obyektimiz markazida turadi.

Dissertatsiyaning "**Ingliz va o'zbek tillarida *education/ta'lim* va *science/ilm* mazmunli frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida proverbial frazeologizmlarning semantik maydoni, shakl va mazmun kategoriyasi, ekvivalentlik darajasi haqida fikr yuritiladi. Biz bu bobda tahlil obyekti bo'lgan frazeologik birliklarni konseptual tizim asosida ularni: *Education/ ta'lim, Teacher/o'qituvchi, muallim, Student, pupil/talaba, o'quvchi, Teach, learn/saboq, Lesson/dars, University/universitet, School/maktab, Science/ilm, Knowledge/ bilim, Reading/o'qish, Book/kitob* kabi semantik

<sup>22</sup> Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство ленинградского университета, 1963. – 227 с.; Пинхасов Я.Д. Хозирги ўзбек адабий тили. – Лексикология ва фразеология. – Тошкент, 1969. – 247 б.; Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 264 с.

<sup>23</sup> Виноградов В.В., Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва.: Издательский центр «Феникс», 1972. – 206 с.

<sup>24</sup> Кенесбаев С.К. О некоторых особенностях фразеологических единиц в казахском языке // Известия АН Каз.ССР, серия филологии и искусствоведения. Выпуск 1-П. – Алма-Ата, 1954. – С. 9.

<sup>25</sup> Stefen Th.G. Phraseology and linguistic theory. University of California, Santa Barbara. 2008. – P.45.

<sup>26</sup> Носиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2016. – Б. 14.

<sup>27</sup> Adams, Owen S. (17 September 2023). "Proverbial Phrases from California". *Western Folklore*. 8 (2): 95-116. doi:10.2307/1497581. JSTOR 1497581.; Arvo Krikmann "the Great Chain Metaphor: An Open Sesame for Proverb Semantics?", *Proverbium: Yearbook of International Scholarship*, 11 (1994), P. 117-124.

maydonlarga ajratib tahlilga tortdik va ularning paradigmatic munosabatlariga diqqatimizni qaratdik.

Ingliz tilida **Education/ta'lim** konseptiga doir frazeologik birliklar bir qancha kichik konseptual guruhlarni tashkil etadi. Sohaga oid frazeologik birliklarning tahlili natijasida *ilmsizlik, tug'ma nuqson, mashaqqatlilik, ilmlilik, ilmning qudrati* kabi 40 dan ortiq mavzuviy maydon doirasida qo'llanilishi aniqlandi. Quyida tahlilga tortilgan misollarda ham buning amaliy isbotini kuzatishimiz mumkin. **Education /ta'lim** konseptli frazemalar: *A little education is a dangerous thing* (Oz bilim xavfli narsadir); *Crooked by nature is never made straight by education* (Bukri bo'lib tug'ilganni tarbiya to'g'rilamas); *Education is a subversive activity* (Ta'lim olish mashaqqatdir); *Better educated than wealthy* (Ilmli bo'lish boy bo'lishdan afzaldir). O'zbek tilida mazkur konsept doirasidagi paremlar *bilim* konsepti asosida hosil bo'ladi va 200 dan ortiq kichik konseptual guruhlarni shakllantiradi. Sohaga oid paremlardagi shakllangan mikro maydonlarda *ilm, kasb-hunar, ilmsizlik, vaqt-fursat qadri, bahona, natija* kabi mavzuviy maydon doirasida qo'llanilgan proverbial frazeologizmlar tahlil natijasida aniqlandi. **Bilim** konseptli frazemalar: *Fan – ta'lim bulog'i, Bilim – hayot chirog'i; Ta'lim berish uchun ta'lim olish kerak. Bilmas tabib jon olar; Bilim – davlatdan qimmat; Davlat tugar, bilim tugamas; Bilimsiz mulladan ustiga yuk ortilgan eshak yaxsh; Bilim olish – igna bilan quduq qazish kabidir; Bilim barcha kulfatlarga qalqon.*

Ingliz tilida **Teacher/o'qituvchi** konseptiga oid frazeologik birliklarning tahlilga tortilgan misollaridan kelib chiqib, ularning 50 dan ortiq kichik tematik guruhlari aniqlandi. Aniqlangan guruhlardagi paremlarning tahlili natijasida *qiyoshlash, qadr-qimmat va qadrsizlik, ahillik va noahillik, natija, samaradorlik va besamarlik* kabi mavzuviy maydon doirasidagi proverbial frazeologizmlar mavjudligi isbotlandi. **Teacher/o'qituvchi**, muallim haqidagi frazeologik birliklar: *Teacher, Like/ like pupil* (O'qituvchisi qanaqa bo'lsa, o'quvchisi shunaqa bo'ladi); *Our first teacher is our own heart* (Bizning birinchi ustozimiz o'z yuragimizdir); *Experience is the best teacher* (Tajriba - eng yaxshi o'qituvchi). Mazkur maydon doirasidagi proverbial frazeologizmlar ingliz tilida *Teacher/o'qituvchi* leksemasi asosida shakllangan bo'lsa, ushbu konseptga oid paremlar o'zbek tilida asosan *ustoz* konsepti yordamida hosil bo'ladi. *Ustoz* leksemasi asosida shakllangan paremlar *tenglik-tengsizlik, mashhurlik, donolik va nodonlik, kuch-qudrat* kabi 70 dan ziyod mavzu doirasida qo'llanganligi faktik misollar bilan ko'rsatildi. *Ustoz/o'qituvchi*, muallim haqidagi frazeologik birliklar: *Ustozi qanday – shogirdi shunday; Ustoz otangdek ulug'; Ustoz mehri – ota mehri; Shogird ustozidan o'tmasa, kor yitar!; Ustoz bilimli – shogird ilmli.*

Ingliz tilida frazeologik birliklar qatorida **Mullah/mullo** leksemasi asosida shakllangan frazeologik birlik aniqlanmadi.

O'zbek tilida *mullo* konseptiga doir frazeologik birliklar ham bir qancha kichik konseptual guruhlarni tashkil etadi. Sohaga oid frazeologik birliklarning tahlili natijasida *vaqt va fursat qadri, mashaqqat, mehnat, donolik va nodonlik* kabi 34 dan ortiq mavzuviy maydon doirasida qo'llanilishi aniqlandi. *Mullah/mullo* konseptli frazemalar: *Mullo mingan eshakday; Mulla halvoni ko'rsa, Qur'onni unutadi; Mulla Mirashir, qilmishiga yarashir, Mulla Mirashir, topganini bizga tashir;*

*Mulla, mullaning ishi hiyla; Mullaning sallasi oq, Yuragi – qora; Mulla folbinni ko‘rolmas, Eshon – ikkalasini ham; Mullaning aytganini qil, Qilganini qilma.*

Ingliz tilida tahlilga tortilgan misollarda 300 dan ortiq mavzu doirasida qo‘llanilgan frazeologik birliklar aniqlangan bo‘lsa, o‘zbek tilida ularning soni ko‘proq 500 dan ortiq mavzu doirasida qo‘llanilgan frazeologik birliklar tahlil natijasida aniqlandi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tilshunoslikda sinonim va antonim hodisalari mukammal tadqiq qilingan bo‘lsada, ammo proverbial frazeologizmlar ma’nodoshligi borasida yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. Xuddi shunday, ingliz va o‘zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlar barmoq bilan sanoqli. Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan biri shuki, haligacha faqat turkiy tilshunoslikda emas, umuman rus va ingliz tilshunosligida ham frazeologik birliklarning tildagi o‘rni haqida qat’iy bir fikrga kelingan emas. Shu boisdan ham bugungi davrda frazemalar sinonimiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ustida izlanishlar olib borish zarurati tug‘ilmoqda. Chunki, frazeologik birliklardagi mazmuniy qamrovning kengligi davrlar o‘tishi bilan har qaysi frazema tabiatida, xususan, uning ma’nosida turli xildagi ko‘chishlar yuz berishiga imkon yaratadi. Bu o‘z navbatida ayrim paremalarni bir necha mavzu doirasida qo‘llashga yo‘l ochib beradi va mana shu xususiyat har bir paremaga barhayotlik bag‘ishlaydi. Tahlilga tortilgan misollar natijasiga ko‘ra, o‘zbek tilida sohaga oid frazeologik birliklarda o‘n beshta proverbial frazeologizm ishtirok etgan **sinonimik uya** aniqlangan bo‘lsa, ingliz tilida 5 ta proverbial frazeologizm ishtirok etgan **sinonimik uya** aniqlandi. Buning natijasini quyidagi misollarda ham kuzatish mumkin: Ingliz tilida tahlilga tortilgan misollar natijasida 3 ta proverbial frazeologizm ishtirok etgan sinonimik uya aniqlandi.

✓ *Better untaught than ill taught.*

✓ *A little education is a dangerous thing,*

✓ *Zeal without science is like fire without light.*

O‘zbek tilida tahlilga tortilgan misollar natijasida o‘n beshta proverbial frazeologizm ishtirok etgan sinonimik uya aniqlandi.

✓ *Shogirdiga tosh bergan tosh olar, bosh bergan bosh olar:*

✓ *Nima eksang, shuni o‘rasan.*

✓ *Ne eksang, shu ko‘karar.*

✓ *Qovo ekib qovun kutma.*

✓ *Arpa ekib bug‘doy kutma.*

✓ *Tikandan tariq unmas.*

✓ *Har kim ekkandin o‘rar.*

✓ *Tosh qo‘ygan tosh olar, G‘isht qo‘ygan g‘isht olar.*

✓ *O‘t bergan o‘tini olar, Suv bergan suvini.*

✓ *Nima solsang oshingga, Shu chiqar qoshig‘ingga.*

✓ *Oxurga neni solsang, Xurmachadan shuni olasan.*

✓ *Ola ekkandan oz olur, Rosa ekkandan soz olur.*

✓ *Tol ekib olma kutma.*

✓ *Bo‘z to‘qisang bo‘z olasan, Gilam to‘qisang gilam olasan.*

✓ *Yaxshilik ekkandan esonlik o‘rar.*

✓ *Arpa ekkandan arpa olar, Bug‘doy ekkandan bug‘doy.*

Tildagi ma'lum bir mazmuniy munosabat nutqda bir necha frazeologik birliklar yordamida reallashadi. Turli paremlar vositasida bir xil mazmuniy munosabatning ifoda etilishi esa sinonim PF guruhini – qatorini yuzaga keltiradi. Paremlarning sinonimik qatorini kuzatish, o'z navbatida, har bir til birligining mazmunini aniq belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tilni yaxshi bilish, uning boy imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun, ayniqsa, sinonimik qatorga ega bo'lgan frazemalarni bilish nihoyatda zarur.

Shu bilan birga, biz dissertatsiyada frazeologik birliklarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ularni quyidagi ekvivalentlik guruhlariga ajratib tahlilga tortdik:

1. Mono – [yun. Monos – bir, yakka, yagona] O'zlashma baynalminal qo'shma so'zlarning birinchi qismi: “bir, yagona, yolg'iz” ma'nolarini bildiradi. Monoekvivalentlik bir tildan boshqa ikkinchi tilda ma'nodoshi mos keladigan, o'rnini bosadigan so'z yoki birikmaning yagona bo'lishi<sup>28</sup>. Masalan, ingliz tilidagi ushbu frazemaning o'zbek tilida bitta ekvivalenti bor. Inglizcha: *All ears* – O'zbekcha: *Jon qulog'i bilan tinglamoq*; Inglizcha: *Ear to the ground* – O'zbekcha: *Ko'p narsani biladigan*.

2. Poli – [yun. Poly – ko'p, ancha, ko'pgina] Baynalminal o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi: biror narsani ko'pligini, xilma-xil murakkab tarkibli ekanini ko'rsatadi<sup>29</sup>. Poliekvivalentlik bir tildan boshqa ikkinchi tilda ma'nodoshi, mos keladigan, o'rnini bosadigan so'z yoki birikmasi ikki va undan ortiq bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi quyida keltirilgan frazemaning o'zbek tilida bir nechta ekvivalenti mavjud. **Inglizcha:** *Do not judge a book by its cover* – **O'zbekcha:** *Tashqi ko'rinishga qarab baho bermang; Gavdaga qarab to'n bichmoq*.

3. Ma'noviy ekvivalentlik hodisasi tematik mavzusi turlicha bo'lsa ham ma'no jihatdan o'xshash bo'ladi. Masalan: **Inglizcha:** *Art is long, life is short* (San'at abadiy – umr qisqa) iborasi kasb tematikasiga tegishli. Bu idiomaga **o'zbek tilidagi** *Ilmsiz – bir yashar, Ilmli – ming yashar* frazemasiga ekvivalent bo'ladi. Bu o'rinda ikki til idiomasi tematik jihatdan turlicha ekanligini kuzatishimiz mumkin.

4. Ekvivalentsiz frazemalar har doim ham idiomalarning ekvivalentini bir tildan ikkinchi tilga topishni imkoni bo'lmaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi quyidagi ekvivalenti mavjud bo'lmagan frazeologik birliklarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, quyidagi inglizcha idiomalarga o'zbek tilining frazemalari orasidan ma'no va mazmun jihatidan mos keladigan paremlarni topish mushkul *Drakonian laws* (Drakon qonunlari) kabi. Ingliz tilining idiomalari orasidan quyida keltirilgan o'zbek frazemalariga nisbatan ma'no va mazmun jihatidan mos keladigan frazeologik birliklarni topish mushkul. *Madrasa tuprog'ini yalamoq; Ilm qishda eriydi, yozda muzlaydi*.

Uchinchi bob “**Ingliz va o'zbek tillarida ta'lim va ilm mazmunli frazemalarning strukturaviy tahlili**” deb nomlabib, unda frazeologik birliklarning tadqiqi jarayonida ularning struktur jihatlariga e'tibor qaratilgan. **Ta'lim, ilm mazmunli frazeologik birliklar** (TIMFB) struktur jihatdan tahlil qilinganda

<sup>28</sup> Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т. ва бошқалар. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” IV жилд, Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2020. – В.56.

<sup>29</sup> Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т. ва бошқалар. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” IV жилд, Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2020. – В.79.

quyidagicha xulosaga kelindi. 1. Frazеologik birliklar tarkibiga har qanday soʻz turkumi kirishi mumkin. 2. Frazеologik birliklar bilan kontekst oʻrtasidagi munosabatda frazeologik birliklarning grammatik qurilishi muhim roʻl oʻynaydi. 3. Frazеologik birliklar leksik birlik va qoʻshma soʻzlar qatorida soʻz turkumlari kabi leksik-grammatik jihatdan tahlil qilinadi. Masalan, *taʼlim va ilm* konseptli frazeologik birliklarning shakllanishida sifat soʻz turkimiga oid soʻzlarning ham oʻziga xos oʻrni mavjud. 4. Frazеologizmlarning shakllanishida semantik tayanch komponent vazifasida, asosan, asliy sifatlar ishtirok etadi. Masalan, *oq* leksemasi – oʻzbek xalqi oq rangga yaxshilik timsoli sifatida qaraydi. Shu asosda mazkur soʻz yordamida, asosan, ijobiy maʼnoli frazeologizmlar shakllangan. Bu xildagi frazemalar tarkibida ot va feʼllar ham ishtirok etib, feʼl iboralar hosil qilinganligini quyidagi misollar tasdiqlaydi: *oq bilan qorani bilmoq, oq bilan qorani ajratishni bilmoq, oq bilan qorani ajratmoq* kabilar.

Ingliz tilida ham sifat soʻz turkimi idiomalar hosil boʻlishiga faol ishtirok etadi. Masalan, *a clever Dick* – ilmiy, dono va uning aksi *a silly billy, a simple Simon, a proper Charley* – ilmsiz, nodon kabilar. Shu bilan birga, oʻzbek tilida *qattiq* leksemasi bilan salbiy maʼnoli feʼl va ot frazeologizmlar ham shakllanishi mumkin. Masalan, *qattiq qoʻl boʻlmoq, qattiq qoʻlli boʻlmoq, qattiq qoʻllik qilmoq, qattiq qoʻl, qattiq qoʻllik* singari.

Bizga maʼlumki, feʼllar soʻzlarni oʻziga ergashtirib, uning boshqaruvlik xususiyati kuchlidir. Feʼllarning bu xususiyati frazeologik birliklarda ham aks etmasdan qolmaydi. Bizning bu fikrimizni professor Sh.Rahmatullayevning qimmatli fikr-mulohazalari ham tasdiqlaydi. U “Bogʻlanish asli barcha turkum leksemalariga xosdir, biroq feʼlda kuchlidir<sup>30</sup>” deb qayd etadi. Professor A.Mamatov esa “Feʼning boshqaruvlik xususiyati koʻplab frazeologizmlarni feʼl idiomalarga aylantiradi<sup>31</sup>” deb izohlaydi. Demak, feʼllar idiomalar tarkibida grammatik tayanch aʼzo sifatida qatnashib, ularning kategorial tizimini belgilaydi. Bunda feʼl asosan ot leksemalar bilan bogʻlanishga kirishadi. Masalan, *javob bermoq, savol bermoq* kabilar. Ingliz tilida *Ace a Test – aʼlo baho olmoq; To be a swot – koʻp oʻqiydigan; Crank out a paper – insho yozmoq; To have smth at oneʼs finger ends – besh qoʻlday bilmoq* kabi idiomalarni keltirib oʻtish mumkin. Tahlillardan kelib chiqib taʼkidlash mumkinki, frazeologik birliklarni strukturaviy jihatdan tahlil qilish muammosi hali yetarli darajada oʻrganilmagan qiziqarli masalalardan biridir. Xususan, ingliz tilidagi TIMFBlarning strukturaviy komponentlari va modellari ilmiy adabiyotlarda toʻliq yoritilmagan.

Frazеologizmlarning strukturasi, komponentlari tartibi, shakli bilan bogʻliq boʻlgan yana bir qancha muammolar bor. Bu oʻrinda ingliz tilidagi taʼlim va ilm komponentli frazeologik birliklar nazarda tutilmoqda. Biz TIMFBlarning komponentlari tartibi va strukturaviy modellarini oʻrganishda yuqoridagi umumiy usullardan foydalanamiz. Dastlab TIMFBlarning komponentlari tartibini oʻrganib chiqamiz va ularning har birini qanday strukturaviy modellar orqali birikishini aniqlaymiz. Ushbu muammoni hal etish uchun bir nechta tahlil oʻtkazildi.

Ikki komponentli TIMFBlar ingliz tilida katta guruhni, yaʼni TIMFBlar 300 tani tashkil etadilar. TIMFBlar soni xususida keltirilgan bu maʼlumotlar lugʻat va

<sup>30</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент, 1992. – Б.126.

<sup>31</sup> Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. Тошкент: Наврўз нашриёти, 2019. – Б.159.

asarlarni ko‘rib chiqish natijasida hosil bo‘lgan. Biroq, ularning soni yanada ko‘proq bo‘lishi mumkin, chunki til doimiy rivojlanishda va boyishda davom etadi.

Tahlilga tortilgan misollardan kelib chiqqan holda, TIMFBlar quyidagi strukturaviy modellarga ajratildi: **noun + noun** strukturaviy modeli bilan quyidagi ta‘lim va ilm mazmunli frazeologizmlar yasalgan: *teacher’s pet* – o‘qituvchining erkatoyi; *cheat sheet* – qoralama; *class clown* iborasi – sho‘xo‘quvchi; *Knowledge is power* – bilim kuchdir; **adjective + noun** strukturaviy modeli bo‘yicha quyidagi TIMFBlar yasalgan: *an old cat* – tajribali kampir; *old bird* – ko‘p narsani biladigan odam. Ushbu strukturaviy modelda *as-as* konstruksiyasi bilan kelgan bir qancha ikki komponentli TIMFBlar mavjud: *As far as anyone knows* – kimdir bilib qolguncha. Ayrim holatlarda komponentlarda gap mazmuniga ko‘ra bu birliklardagi bitta as tushib qoladi. Ko‘p hollarda iboraning grammatik qurilishini e‘tiborga olish lozim bo‘ladi. Masalan: *dumb as a fish* – baliqdek kamgap; *tired as a dog* – itdek charchagan. Ikki komponentli TIMFBlarning quyidagilari **verb + noun** strukturaviy modeliga ega: *Learn the Ropes* – ipidan-ignasigacha bilmoq, *hit the books* – ko‘p o‘qimoq, *crank out a paper* – insho yozmoq; ikki komponentli TIMFBlarning **noun + preposition + noun** strukturaviy modeli asosida yasalgan birliklari: *University of life* – universitetdagi talabalarni universitetda o‘tkazgan kuni.

O‘zbek tilida tahlilga tortilgan misollardan kelib chiqqan holda, TIMFBlar quyidagi strukturaviy modellarga ajratildi: **ot+fe’l** strukturaviy modeli bilan quyidagi ta‘lim va ilm mazmunli frazeologizmlar yasalgan: *Aqli yetadi*; *Javob bermoq*; *Savol bermoq*; *Xudo biladi*; *Yod olmoq*; *Saboq olmoq*.

Alohida takidlash joizki, ikki komponentli frazeologik birliklar boshqa turdagi komponentli frazeologik birliklarga nisbatan salmog‘ jihatdan ustunlik qilmaydi. Buning sababi esa frazeologik birliklar asosan bir necha komponentlardan tashkil topishi bilan izohlanadi.

Ingliz tilida **noun + noun, adjective + noun, verb + noun, conjunction + noun, noun + preposition + noun, verb + preposition + noun, verb + preposition** strukturaviy modeli asosida yasalgan birliklar aniqlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich o‘zbek tilida asosan **ot+fe’l** strukturaviy modeli bilan hosil bo‘lishi tahlilga tortilgan misollar asosida aniqlandi.

Uch komponentli TIMFBlar ingliz tilida 250 tani tashkil etadi va quyidagi strukturaviy modellar asosida yasalgan: **verb + pronoun + noun** strukturaviy modeliga kirgan birliklar: *Teach Someone a Lesson* – saboq bermoq; *Doing your homework* – uy ishini qilmoq; **noun + preposition + adjective + noun** strukturaviy modeli asosida yasalgan birliklari: *School of Hard Knocks* – hayotiy bilimlarni egallamoq. O‘zbek tilida tahlilga tortilgan misollardan kelib chiqqan holda, TIMFBlar quyidagi strukturaviy modellarga ajratildi: **ot + ot + sifat** strukturaviy modeli bilan quyidagi ta‘lim va ilm mazmunli frazeologizmlar yasalgan: *Bilim – davlatdan qimmat*; *Ustoz otangdek ulug‘*, *Bilim – qilichdan keskir*; *Bilim – zambarakdan kuchli*; **ot+ fe’l+fe’l** strukturaviy modeli bilan quyidagi ta‘lim va ilm mazmunli frazeologizmlar yasalgan: *Ilm istasang takror qil*, *Ilm topmay maqtanma*, *Bilim baxt keltirar*, *O‘qish xomni pishirar*, *Alifni tayoq deyoymaslik*. *Alifni tayoq*

*demoq, Ishning ko'zini bilmoq, A'lo baho olmoq*<sup>32</sup>.

Ingliz tilida **verb + adj + noun, verb + noun + noun, verb + conjunction** kabi TIMFBlarga oid frazemalarning strukturaviy modellari aniqlangan. O'zbek tilida tahlilga tortilgan misollardan kelib chiqqan holda, TIMFBlar quyidagi **ot + ot + sifat, ot + ot + ot, ot + sifat + ot, ot + ot+fe'l** singari strukturaviy modellarga ajratilgan.

Ma'lumki, ba'zi tillarda frazeologik birliklar o'z strukturasi ko'ra *so'z, so'z birikmasi, gap* shaklida uchrasa, ba'zilarida esa *so'z birikmasi, gap* shaklida ifodalanadi. Demak, barcha tillarda ham frazeologik birliklar strukturasi jihatidan bir xil emas degan xulosaga kelinadi. Ingliz, rus kabi tillarda bir so'z ham idiomatik xarakterga ega bo'lib, idioma vazifasida kelishi mumkin. Tadqiqotchi Z.V.Korzyukova bir so'zdan iborat *Barabbas, Azazel, Bony* birliklarni ham frazeologik birliklar sifatida talqin etadi<sup>33</sup>. O'zbek tilshunosligida esa ikki va undan ortiq so'z birikuvidan hosil bo'lgan hamda ko'chma ma'no anglatuvchi til birligiga frazema deb qaraladi. Shu bois ham ingliz va o'zbek tillari tarkibidagi frazeologizmlarni sintaktik tahlil qilish dolzarb va munozarali masalalardan biri hisoblanadi.

Tahlilga tortilgan *proverbial frazeologizmlarning* katta qismi **the Simple Sentence/sodda gap** shaklidagi til birliklarini tashkil etadi. Sodda gap tuzilishiga ko'ra yig'iq yoki yoyiq bo'lishi mumkin. Bosh bo'laklardan tarkib topgan gaplar – yig'iq gap, agar bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etsa, yoyiq gap sanaladi<sup>34</sup>. Ushbu tadqiqotda faqat bosh bo'laklardan iborat yig'iq sodda gap shaklidagi quyidagi *proverbial frazeologizmlar* uchraydi: **Ingliz tilida:** *Knowledge is power* (bilim kuchdir); *Experience teaches* (tajriba o'rgatadi). **O'zbek tilida:** *Go'zallik – ilmu ma'rifatda; Bilim kuchdir; Ilm pardalidir.*

Alohida ta'kidlash joizki, chog'ishtirilayotgan tillar tarkibidagi *proverbial frazeologizmlarning* yig'iq sodda gap shakli kam uchraydi. Sodda yoyiq shakli esa salmog' jihatdan ustunlik qiladi. Bosh bo'laklardan tashqari gap tarkibida ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etadigan *proverbial frazeologizmlar* sodda yoyiq gap shakliga egadir. Misollarga murojaat qilamiz: **Ingliz tilida** *A little education is a dangerous thing* (Oz bilim xavfli narsadir); *Education is a subversive activity* (Ta'lim olish mashaqqatdir); *An educated fool is dangerous* (Bilimli ahmoq xavflidir); *Arrogant pupil is like stick* (Dimog'dor shogird tayoq kabidir); *Smart pupil is like crown* (Aqlli shogird toj kabidir). **O'zbek tilida:** *Bilmas tabib jon olar; Bilim – davlatdan qimmat; Hayot – eng yaxshi ustoz; Ilm istab Chinga bor; Kitobdan yaxshi do'st yo'q; Ustoz otangdek ulug'.*

Barcha tillardagi kabi, chog'ishtirilayotgan tillar kesimidagi sodda gaplar o'zining grammatik asoslar miqdoriga ko'ra ikkiga bo'linadi: **one-member sentence/bir tarkibli gaplar, two-member sentence/ikki tarkibli gaplar.**

Agar gapning grammatik asosi bir bosh bo'lakdan iborat bo'lsa, bu sintaktik qurilma – **one-member sentence/bir sostavli gap** hisoblanadi. **Ingliz tilida:** *Better untaught than ill taught* (Savodsiz ilmi bo'lgandan ko'ra ilmsiz bo'lgan yaxshi);

<sup>32</sup> Хошимов Ў. Икки эшик ораси. Роман, масъул муҳаррир А.Самад. Тошкент, Мериюс, 2015. – 548 б.

<sup>33</sup> Корзюкова З.В. Основные аспекты функционирования фразеологических единиц с именами собственными в английском языке: национально-культурная специфика: Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2003. – С. 153-165.

<sup>34</sup> Юсупов У.К. Инглиз тили грамматикисидан универсал қўлланма. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 374 б.

*Learn not and know not* (O‘qish yo‘q – bilish yo‘q); *Soon learnt, soon forgotten* (Tez o‘rganilgan, tez esdan chiqar); *It’s never late to learn* (O‘rganishga yoshni ahamiyati yo‘q). **O‘zbek tilida:** *Aqlni beaqldan o‘rgan;* *Ilmni o‘rgatish mumkin, donolikni o‘rgatib bo‘lmas;* *Bilgan – bitirar, bilmagan – yitirar.*

Agar gapning grammatik asosi ikki bosh bo‘lak (ega va kesim)dan iborat bo‘lsa, bu sintaktik birlik – **two-member sentence/ikki tarkibli gap**. Bu shakldagi gaplarga quyidagi misollarni keltirish mumkin: **Ingliz tilida:** *Today a reader, tomorrow a leader* (Bugun kitobxon ertaga esa rahbar); *To know the ropes* (Arqonni bilmog). **O‘zbek tilida:** *Shogird ustozidan o‘tmasa, kor yitar!;* *Beshikdan qabrgacha ilm izla;* *Ustani shogird sindirar, pistani – po‘choq.*

Ingliz va o‘zbek tillarida gaplar o‘zining strukturasi bo‘laklarining to‘liq bo‘lishi yoki biror (bir necha) bo‘laklarning sintaktik qurilmada ishtirok etmaganligi, “tushib qolganligi”ga qarab **complete sentence/to‘liq gap** va **incomplete sentence/to‘liqsiz gaplarga** bo‘linadi. Ikki tilda ham to‘plangan proverbial frazeologizmlarning katta qismini to‘liq gap shaklidagi iboralar tashkil etadi. “O‘zbek tili grammatikasi”da to‘liqsiz gaplarning quyidagi turlari ko‘rsatilgan: 1) dialogik nutq jarayonidagi to‘liqsiz gaplar; 2) mustaqil qo‘llanuvchi to‘liqsiz gaplar; 3) frazeologik birikma tarzidagi to‘liqsiz gaplar; 4) qo‘shma gap tarkibidagi to‘liqsiz gaplar<sup>35</sup>.

Tahlilga tortilgan proverbial frazeologizmlar orasida to‘liqsiz gap shaklidagilari uchraydi: **Ingliz tilida:** *Knowledge will give you power, but character respect* (Bilim sizga kuch beradi, odob esa hurmat). **O‘zbek tilida:** *Yaqinni ko‘rib bilasan, uzoqni – o‘qib;* *Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra – qatra yig‘ilib daryo;* *Bilgandan bilmaganing ko‘p, ko‘rgandan – ko‘rmaganing.*

Chog‘ishtirilayotgan proverbial frazeologizmlar orasida **personal sentence/shaxsli gap** va **impersonal sentence/shaxssiz gap** shaklidagi til birliklari ham uchraydi. Shaxsi aniq gaplarda ega aniq shaxs, predmet, hodisa yoki insonlar guruhini ifodalaydi: *You teach the dolphin to swim* (Siz delfinni suzishga o‘rgatasiz). Shaxsi noaniq gaplarda gohida subyekt noaniq, gohida so‘zlovchi ataylab uni atashni hohlamaydi, ega *they, some, somebody* va boshqa olmoshlar bilan ifodalanadi: *It is said who speaks a lot learns little* (Ko‘p gapirgan, kam biladi). Shaxsi umumlashgan gaplarda harakat ko‘p shaxslarga tegishli bo‘ladi, ega umumlashtiruvchi ma‘nodagi *one, we, you, he* olmoshlari bilan ifodalanadi: *One man’s fault is another man’s lesson*. (Bir insonning xatosi boshqaning darsidir.) Shaxssiz (egasiz) gaplarda harakat subyekt bilan bog‘lanmagan, shuning uchun ham ega gap strukturasi ikki tarkibli majburiylikning shartligi uchun yuzaki xarakterda bo‘ladi, va ko‘p hollarda *it* olmoshi bilan ifodalanadi: *It is hard to teach old dogs to bark* (Qari itlarga hurishni o‘rgatish qiyin); *It’s never late to learn* (O‘rganishning kechi yo‘q). **Ingliz tilida** *it* formal egali shaxssiz (egasiz) gaplar asosan vaqt va makon munosabatlarini ta’riflashda qo‘llaniladi.

O‘rganilayotgan tillar kesimida proverbial frazeologizmlarda sintaktik jihatdan teng, gap bo‘laklari birdan ortiq holda uyushib keladi. Bunday gaplar **homogeneous parts of the sentence/uyushiq bo‘lakli gap** shaklidagi til birliklari deyiladi. **Ingliz tilida:** *Learning makes a good man better and an ill man worse* (O‘qimoq yaxshi

<sup>35</sup> Юсупов У.К. Инглиз тили грамматикисидан универсал қўлланма. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 374 б.

odamni go‘zal qiladi, yomonni esa tubanlashtiradi); *Art and knowledge bring bread and honour* (San‘at, bilim non va obro‘ olib keladi); *Give a man a fish and you feed him for a day, teach a man to fish and you feed him for a lifetime* (Biror kishiga baliq tutib bersangiz, bir kun boqqan bo‘lasiz, Baliq tutishga o‘rgatsangiz, u o‘zini bir umr boqadi). **O‘zbek tilida:** *Ot boshiga ish tushsa, suvliq bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar; Qunt bilan ilm o‘rganish – nina bilan quduq qazish; Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol; Davlat tugar, ilm tugamas; Har bog‘ning – guli, har chorbog‘ning o‘z bulbuli bor.*

Tadqiqot ishida ko‘rib chiqilgan **complex sentences/qo‘shma gap** tarkibidagi proverbial frazemalar ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham uchraydi. O‘zbek tilshunoslari bog‘lanish yo‘llariga ko‘ra oddiy qo‘shma gaplarni quyidagi turlarga ajratadilar: 1) bog‘langan qo‘shma gap; 2) bog‘lovchisiz (faqat ohang orqali bog‘langan) qo‘shma gap; 3) ergash gapli qo‘shma gap. Bog‘lovchisiz (faqat ohang orqali bog‘langan) qo‘shma gaplar mazmun munosabatiga *ko‘ra biriktiruv, zidlov, payt, shart, to‘siqsizlik, natija, sabab, o‘xshatish, izohlash* munosabatlarini ifodalaydi. Ergash gapli qo‘shma gaplar mazmun munosabatiga ko‘ra bosh gapga nisbatan *ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ravish, o‘rin, payt, sabab, maqsad, miqdor, shart, to‘siqsizlik, o‘xshatish, chog‘ishtirish, natija* munosabatlarini ifodalaydi<sup>36</sup>.

“Bog‘langan qo‘shma gaplar bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan farqlanib, yopiq konstruksiyalarni tashkil etadi. Bog‘langan qo‘shma gaplar ikki qismdan tarkib topadi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro aloqasi orqali quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi<sup>37</sup>. Bog‘langan qo‘shma gaplar mazmun munosabatiga ko‘ra teng aloqada bo‘ladi, biriktiruvchi qiyoslash va izohlash, zidlov, ayiruv, sabab-natija, payt munosabatlarini ifodalaydi. Tahlilga tortilgan frazemalar orasida bog‘langan qo‘shma gaplarning quyidagi turlari uchraydi: **Ingliz tilida:** *Silver and gold may tarnish away, but a good education will never decay* (Moludavlat tugashi mumkin, biroq bilim mangudir). Bu turkumdagi tahlilga tortilgan o‘zbekcha frazeologik birliklar qismlari asosan bo‘lsa, esa bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi va bu xildagi qo‘shma gap qismlarining tuzilishida ma‘lum parallelizm kuzatiladi: *Yigit orif bo‘lsa, aslini so‘rama.*

Payt munosabatini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap shaklidagi proverbial frazeologizmlar. **Ingliz tilida:** *Knowledge is of the past, Wisdom is of the future* (Donolik qidir bilim emas. Bilim o‘tmish, donolik esa kelajak). **O‘zbek tilida:** *Zamon seni o‘qitar, Tayoq bilan so‘qitar. Sabog‘ini bilmasang, Do‘konda bo‘z to‘qitar.*

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap shaklidagi frazemalar. Ingliz tilida: *Knowledge is power, ignorance is weakness* (Bilim kuchdir – bilimsizlik esa ojizlik); *A load of books does not equal one good teacher* (Bir nechta kitob bitta yaxshi o‘qituvchiga teng kelmas); *Education is power, knowledge is wealth* (Ta‘lim bu – kuch, bilim esa boylik). **O‘zbek tilida:** *Ilm ustozni – ota maqomida, hunar ustozni – ona maqomida.*

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida “ta‘lim va ilm”**

<sup>36</sup> Абдуллаев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили (синтаксис). Қўшма гап. – Гулистон, 2008.– Б.14.

<sup>37</sup> Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис [Масъул муҳаррирлар: Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ.]. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.333.

**mazmunli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, tadqiqot obyekti bo‘lgan frazeologik birliklar lingvomadaniy xususiyatlariga ko‘ra tahlilga tortildi. Masalan, **Inglizcha** *lord and master* frazemasida o‘zbek tilida *xonadon sohibi, oila boshlig‘i* degan mazmunni ifodalab kelib, antroponimik leksemalar ingliz tili madaniyatida erkak har doim liderlikka, rahbarlikka, boshchilikka, hukmronlikka intilishi bilan tavsiflanadi. O‘zbek tilida esa *oilaning ustuni erkak, uning tirgagi ayol* frazeologik birligi ingliz tilidagi *lord and master* frazemasiga mazmun va ma‘nosi bilan ekvivalent bo‘ladi. Chog‘ishtirilayotgan tillar frazeologiyasi mavzuviy jihatdan tubdan farq qiladi. Ingliz tilida qo‘llangan *lord and master* iborasida *master* (ustoz) leksemasi ishtirok etgan bo‘lsa, o‘zbek tili frazemasida erkak va ayol leksikalari ishtirok etganini kuzatishimiz mumkin. Bu o‘rinda har bir til vakillari o‘z leksik fondidan kelib chiqib so‘z qo‘llashi bilan birga ularning madaniyati ham frazeologik birliklarni shakllanishida o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan chetda qolmagan. Bu esa ikki etnos madaniyati farq qilishidan dalolat beradi. Mazkur madaniyatdagi tafovutlar esa tilda aks etmasdan qolmaydi. Shu boisdan ingliz lingvomadaniyatida *lord and master* idiomasi patriarxal tasavvurlarga ko‘ra, erkak – oila boshlig‘i, oilaga tegishli barcha qarorlarni qabul qilish uning vakolatida degan qarashlar yotadi. **O‘zbek tilidagi** *oilaning ustuni erkak, uning tirgagi ayol* frazemasida *oilal, erkak, ayol* leksemalari qo‘llanganidan ham o‘zbek xalqi uchun oila muqaddas ekanligini anglash mumkin.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, o‘zbek lingvomadaniyatida oila muqaddas hisoblanadi. Oilada er-xotin uning zanjiri sanaladi. Bu haqda dinimiz Islom ta‘limotida oilaviy hayot muqaddas narsa hisoblanadi. Chunki, oila jamiyat binosining g‘ishti, bir bo‘lagidir. Agar binoning g‘ishtlari sog‘lom bo‘lsa, bino ham mustahkam bo‘ladi, aks holda bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi. Shu bilan birga, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug‘lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha‘niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e‘tibor qaratilgan: “Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o‘z me‘yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir”<sup>38</sup>. - deb qayd etilgan. Tahlil etilgan misollar orqali ikki xalq lingvomadaniyatida farq kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu farqlar ikki xalqning dini, qarashlari, urf-odatlarini, milliy mentaliteti kabi madaniy birliklar bilan belgilanadi.

Ingliz tilidagi *Learn the Ropes* frazemasida o‘zbek tiliga biror narsaning asoslarini yoki asosiy tamoyillarini o‘rganish degan ma‘noni ifodalaydi. O‘zbekcha *ipidan-ignasigacha bilmoq* frazeologik birligi yuqoridagi inglizcha idiomaga mos keladi. *Learn the Ropes* idiomasi mazmunini *As a new employee, I need to learn the ropes of this company’s policies and procedures*. [Yangi xodim sifatida men ushbu kompaniyaning siyosati va tartib-qoidalarini o‘rganishim kerak] jumlasida ham kuzatish mumkin. Chog‘ishtirilayotgan ikki etnos idiomasi qo‘llanilgan so‘zlar tematik jihatdan farq qiladi. Inglizcha variantda *learn* [o‘rganmoq] leksemasi qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘zbekcha variantda *bilmoq* so‘zi qo‘llanilgan. Inglizcha variantda *rope* [arqon] so‘zi qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘zbekcha frazeologik birlikda *ipidan-ignasigacha* so‘z birikmasi qo‘llanilgan.

<sup>38</sup> <https://www.bukhari.uz/?p=21894&lang=oz>

O'rganilayotgan lingvomadaniyatlar masofa jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lsada, ushbu tematik guruhga kiruvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligi bir-biri bilan mazmun jihatidan to'g'ri keladi, chunki turli xalqlar hayoti va tarixi, turmush tarzida o'xshashlik va umumiyliklar mavjud. Shunga qaramasdan, ushbu guruhga kiruvchi frazemalarning o'ziga yarasha milliy madaniy xususiyatlari bor. Milliy madaniy xususiyatlar asosan frazemalarda qo'llanilgan obrazlarda namoyon bo'ladi. Inglizabon etnosda *Learn the Ropes* iborasida biror-bir ishni, vazifani, yumushni yechimini bilmoq, topqir, bilag'on inson gavdalanadi.

O'zbek lingvomadaniyatida esa *ipidan-ignasigacha bilmoq* idiomasi ilmi, ko'p narsani biladigan insonni, o'z kasbini ustasi, bilag'on tushuniladi. Qo'llanilgan iboralarning ma'no va mazmuni o'xshash bo'lgani bilan ikki etnos lingvomadaniyatida xalq o'ziga xos va mos bo'lgan so'zdan foydalanganligi xalqlar o'rtasidagi lingvomadaniy farqlarni ko'rsatib turibdi.

Ingliz tilida ushbu iboraning *know the ropes* shakli ham bo'lsa, o'zbek tilida *ipidan ignasigacha, butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha batafsil, ignasidan ipigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha, boshdan oyoq* kabi variantlari ham mavjud. O'zbek tilida mazkur idiomani shakli ko'pligi xalqimizning so'zga ustaligi, donishmandligi, o'zbek tilining lug'aviy boyligi rang-barang ekanligidan dalolat beradi.

Inglizcha: *A thief knows thief as a wolf knows wolf* idiomasi "bo'ri bo'rini bilganday, o'g'ri o'g'rini biladi" ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida *Bo'ri bo'rini saqlar* frazeologik birligi orqali ifoda etiladi. Inglizcha idiomada *thief* [o'g'ri], *wolf* [bo'ri] so'zlari qo'llanilgan bo'lsa, o'zbekcha iborada esa *o'g'ri* leksemasi ishtirok etmagan, biroq *bo'ri* leksemasi qo'llanilgan. Bu o'rinda xalq o'z madaniyati, qarashlaridan kelib chiqib so'z qo'llagan. Ikki etnosning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor bersak, ingliz lingvomadaniyatida *thief* [o'g'ri] leksemasi ijobiy ma'no ifodalab kelmoqda. O'zbek lingvomadaniyatida esa *o'g'ri* so'zi ijobiy ma'no ifodalamaydi. Inglizcha idiomada barcha o'z kasb doirasidagilarni bilishi haqida so'z borgan bo'lsa, o'zbekcha iborada esa mazkur frazeologik birliklarda do'stlik, birlik va ahillik kabi ma'nolarni namoyon etganini kuzatishimiz mumkin. Bu o'rinda frazema ikki tilda katta farq bilan ishlatilishini ko'rsatyapti.

Inglizcha: *Know the tricks of the trades* "savdogarning hiyla-nayranglarini bilmoq" manosini anglatadi. O'zbek tilidagi *Biror sohaning piri bo'lmoq* frazeologik birligi mazmun-mohiyati bilan to'g'ri keladi. Ingliz tilidagi idioma tarkibida qo'llangan *trade* [savdogar], *trick* [hiyla] so'zlari o'zbek tili tarkibidagi iborada qo'llanilmagan. O'zbekcha variantda esa *pir* leksemasi qo'llanilgan. Chog'ishtirilayotgan frazeologik birliklarni inglizcha variantida salbiy ma'no izohlangan bo'lsa, o'zbekcha idiomada ijobiy ma'no kuzatilyapti. Taqqoslangan frazemalar tarkibidagi so'zlarning turlicha ekanligi ikki xalqning lingvomadaniyati bir-biridan farq qilib turishidan dalolat berib turibdi. Bu o'rinda xalq o'zining lingvomadaniyatiga xos bo'lgan leksemadan foydalangan. Ikki etnos frazeologik birliklarining ma'no va mazmuni teng bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tilga oid leksemalardir, hamda ikkala xalqning o'zigagina xos bo'lgan odatlarini ifodalaydi. Ingliz lingvomadaniyatida savdogarlar juda ayyor kishilar hisoblanadi. Shu bois ham qo'llanilgan idiomada "*tricks of the trades*" birikmasi

ishlatilgan hamda *ayyor savdogarning hiylalarini* biladigan aqlli, ilmi, bilimdon inson obrazi namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek linvomadaniyatida esa *pir*<sup>39</sup> sufiylik an’anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro‘li rahnamolar. Aholi orasida *Pir* tushunchasi avliyo, ma’lum bir hunarning asoschisi ma’nosida ham ishlatiladi. Shu bois ham o‘zbekcha iborada *pir* leksemasi ishlatilgan. Mazkur ibora o‘zbek xalqi orasida biror-bir sohaning eng yaxshi mutaxassisi degan mazmunda foydalaniladi.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirish orqali paydo bo‘lgan frazeologizmlar o‘xshatishning turli ko‘rinishlariga asoslanadi. Aksariyat metaforik frazeologizmlar shaxsga yoki shaxs bilan bog‘liq narsa-harakatga qaratilgan bo‘ladi va shaxsning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini ifoda etadi. Obrazli o‘xshatish asosida shakllangan frazeologizmlarning manbalari turli-tumanligidan tashqari, hayotning turli jabhalaridan olingan bo‘ladi va xalqning tarixi, hayoti, madaniyatini aks ettiradi. Masalan, *Mullo mingan eshakday* kabi frazeologizmi hayvon xarakterini insonga o‘xshatish asosida shakllangan.

O‘zbek tilida ko‘plab frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu belgi-xususiyatlari asosida shakllangan. Bu qatordagi frazeologizmlarda ijobiy va salbiy ma’no ifodalovchi frazemalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, ilonning turli salbiy belgi-xususiyatlari asosida bir qancha frazemalar shakllangan. Jumladan, *yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq* iborasi o‘ta sezgir, juda mug‘ombir kishilar xarakterini ifodalash maqsadida yaratilgan, chunki ilon aynan shunday xislatga ega.

Shu bilan birga, ba’zi frazeologik birliklar tarkibida *know/bilmoq* leksemalari ishtirok etmay, mazkur birliklarga ishora qiluvchi birliklar ham uchraydi. Masalan, Odamlarni turli ijtimoiy guruhlariga bo‘lish qadimdan mavjud bo‘lgan lekin bu turli jamiyatlarda turlicha bo‘lgan: *blue blood / high blood* – kelib chiqishi aslzoda. Angliya va Amerika xalqlari madaniyatida aristokratlar jamiyatning eng muhim kishilari hisoblangan va hattoki “jamiyat egalari” hisoblanishgan: *the (upper) four hundred – to‘rt yuz oila* (Amerikaning eng yuqori iqtisodiy va sanoat kapitalistlari, XIX asrning 80-yillari U. Makalisterning “jamiyat to‘rt yuz oilaga tegishli” degan so‘zlari bilan bog‘liq). Zamonaviylik ham aristokratiyaning bir belgisi hisoblangan: *the rank and fashion – ulug‘ jamiyat, aslzodalik*. O‘zbek xalqi tarixida *bilim olish* va jamiyatda o‘z o‘rnini egallash dastlab diniy bilimlarga asoslangan. Shuning uchun *qozi, eshon, mulla* va *so‘filar* hurmat e‘tiborda bo‘lishgan: *mulla bo‘lmoq – bilim olmoq, o‘qimishli bo‘lmoq; madrasa tuprog‘ini yalamoq – madrasada ko‘p yillar qiyinchilik bilan ta‘lim olmoq* (madrasa dastlab diniy keyinchalik dunyoviy bilimlar o‘qitiladigan ta‘lim maskani bo‘lgan). Lekin vaqt o‘tishi bilan bu guruh vakillaridan ba’zilari *ayyor, ikkiyuzlamachi* va *manfaatparast* bo‘lib borgan. Shuning uchun din vakillari haqidagi ko‘pgina paremlar salbiy ma’noda: *Mulla, mullaning ishi hiyla. Mullaning sallas oq, Yuragi – qora. Qoziga boraverma, pora ber. Mulla holvani ko‘rsa, Qur‘onni unutar. Mulla folbinni ko‘rolmas, Eshon – ikkalasini ham. Mullaning aytganini qil, Qilganini qilma.*

**Inglizcha:** *The admirable Crichton* – “tengsiz Krayton”, “olim”, “ma’lumotli”. Mazkur iboraning kelib chiqishi XVI asrda yashagan mashhur shotland olimi

<sup>39</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/p/pir/>

Dj. Krayton nomi bilan bog‘liq. U 14 yoshida magistrlik unvonini olgan bo‘lib, o‘zining ko‘rkam qiyofasi bilan ajralib turgan. Bu iboraning o‘zbek tiliga ekvivalenti mavjud emas.

**O‘zbek tilida:** *Har kim o‘z aybini bilsa, Vali bo‘ladi*<sup>40</sup> frazemasida “Vali” antroponimi erkaklarning nomi sifatida qatnashgan. Aslida mantiqan “Vali” so‘zi bu o‘rinda *avliyo* ma’nosida kelgan. Agarda “Vali” so‘zi kichik harf bilan berilsa, “o‘z aybini tan olish”, “mardlik” ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek lingvomadaniyatida **avliyo** leksemasi *oqil, dono, ilmli inson* sifatida gavdalanadi.

Yana bir o‘zbekcha: *Ko‘pda Xizr bor* – mazkur frazeologik birlik tarkibidagi “Xizr” mifologik obraz bo‘lib, u o‘zbek folklorida “homiylar, madadkor, chol qiyofasidagi g‘ayrioddiy ko‘makchi<sup>41</sup>” vazifasini bajaradi. Boshqa manbalarda “Xizr” – afsonaviy payg‘ambar sifatida gavdalanadi<sup>42</sup>. Ushbu frazeologik birliklarda Xizr xuddi shu ma’noda ishlatilgan. Yuqoridagi frazeologik birliklarning shakllanishi Sharq xalqlarining qadimiy e’tiqodiy tushunchalari bilan bog‘liq: “Xizr” – “obi-hayot” suvini ichgan bo‘lib, odamlar orasida ko‘zga ko‘rinmay yurar, to qiyomatgacha hayot kechirar emish. Vaqti-vaqti bilan turli qiyofalarga (oppoq soqolli mo‘ysafid, otliq qariya va hokazolar) kirib, halokatga yo‘liqqan odamlarni qutqazar, dehqonlar hosiliga baraka ato qilarmish, kimki uni uchratib qolsa, baxtli va boy bo‘larmish. Shuning uchun o‘tmishda e’tiqodchilar “*Xizrni bir ko‘rsam*” degan niyatda xayr-ehsonlar, ibodatlar qilib yurganlar. Mazkur frazema ana shu e’tiqodiy tushunchadan kelib chiqqan. Shuni aytib o‘tish joizki, mifonimlar o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar tarkibida qatnashib, xalqning milliy qadriyat va urf-odatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Shu asosda “Ayoq, ko‘rgan kuning unutm, ko‘n chirog‘ing quritma”; “Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun”; “Qizil ko‘rsa, Xizr yo‘ldan chiqar”; “So‘zning Luqmon tilidan aytilgani – xo‘p”; “Xasni ko‘rsang, Xizr bil”; “Qizil”ni ko‘rsa, Xizr ham yo‘ldan ozadi”; “Qizil” Xizrni aynatur” kabi mifonimlar qatnashgan frazeologik birliklar tarkibida “Ayamajuz”, “Xizr”, “Luqmon” nomlari Sharq xalqlari hayotini aks ettirishi nuqtayi nazaridan ham milliy til birligi hisoblanadi.

**Xrononim** (tarixiy voqea va hodisalarning nomlari) asosida shakllanib mazmunan ta’lim va ilmga oid frazeologik birliklar ham mavjud. **Ingliz tilida:** “the Augustan age” – “san’at va adabiyotning oltin davri”. Rim imperatori Avgustning hukmdorlik qilgan yillari Rim tarixida “san’at va adabiyotning oltin davri” hisoblanadi. Aksariyat hollarda qirolicha Anna hukmdorlik qilgan davrni ham Angliyaning “oltin davri” deb atashadi. “The Periclean age” – “adabiyot, ilm-fan va san’atning gullab yashnagan davri”. Mazkur frazeologik birligi imperator Perikl nomidan kelib chiqqan bo‘lib, tarixda uning hukmdorlik qilgan yillari “Perikl asri” nomi bilan mashhur<sup>43</sup>.

**Dokumentonim** (hujjatlarning nomlari) komponentli frazeologik birliklar

<sup>40</sup> Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 11.

<sup>41</sup> Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент, Чўлпон, 2018. – Б. 85.

<sup>42</sup> Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 196.

<sup>43</sup> Корзюкова З.В. Основные аспекты функционирования фразеологических единиц с именами собственными в английском языке: национально-культурная специфика: Приложение дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2003. – С. 56.

**Ingliz tilida:** “Drakonian laws” – “og‘ir qonunlar” yoki “Drakon qonunlari” ma’nosida. Miloddan avvalgi asrlarda yashagan Afina huquqshunosi qattiq qo‘lligi bilan mashhur bo‘lib, qilingan jinoyat uchun o‘lim jazosi tayinlagan. Ibora huquqshunos Drakon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, hozirgi kunga qadar iste’molda qo‘llanilib kelinadi<sup>44</sup>. O‘zbek tilining leksik qatlamida esa dokumentonim komponentli frazeologik birliklar aniqlanmadi.

